

Fir'avnning g'arq bo'lishi



11:00 / 28.08.2022 2771

Bani Isroilning dengiz o'rtasidan ochilgan yo'ldan sog'-omon o'tib ketganini ko'rgan Fir'avn o'z qo'shiniga qarab dedi:

Qaranglar! Qochoqlarni tutmog'im uchun mening amrimga bo'ysunib dengiz yorildi! Fir'avn qo'shini bilan olg'a intildi. Bani Isroilni yana qo'rquv qamradi. Zolim dushman biz tomon dengiz o'rtasidan emin-erkin o'tib kelmoqda. Tamom, biz qo'lga tushdik. Fir'avn hozir bizni yana xorlab, asir qilib Misrga olib ketadi yoki mana shu kimsasiz yerda qilich tig'idan o'tkazadi. Muso alayhissalom dengiz qaytadan asliga kelishi uchun asosi bilan yerni urmoqchi bo'ldi. Shunda Alloh taolo vahiy qildi:

Ey Muso, dengizga teginma «albatta ular g'arq qilinuvchi qo'shindir».

Fir'avn va uning qo'shini paydo bo'lgan yo'l o'rtasiga yetgach dengiz harakatga keldi. Ular to'lqinlar tagida qolishdi.

O'lishini aniq bilgach, Fir'avn o'zining kufr-kibr mastligidan uyg'ondi.

Endi bo'lish (payti) yetganida esa, u dedi: «Hech qanday iloh yo'q, magar Bani Isroil iymon keltirgan zot – Allohgina borligiga iymon keltirdim. Men ham musulmonlardan - Allohga bo'ysinuvchilardanman». Lekin, endi Fir'avn uchun tavba qilish fursati o'tgan edi. «Na gunoh ishlarni mudom qilib yurib, qachonki birovlariga o'lim kelganida «endi tavba qildim» deydigan va na kofir holda o'lib

ketadigan kimsalarning tavbalari qabul qilinmas».

«Parvardigoringizning ayrim oyatlari keladigan kunda esa ilgari iymon keltirmagan yoki iymonida yaxshilik kasb qilmagan biron jonga (endi keltirgan) iymoni foyda bermas».

Fir'avnga shunday deyildi.

- «Endi-ya! Axir sen ilgari (ya'ni shu paytgacha) itoatsizlik qilgan va buzg'unchi kimsalardan bo'lgan eding-ku!». Fir'avn dengizga g'arq bo'lib vafot qildi. Minglab go'daklarni qatl qildirgan qonxo'r o'ldi! Ming-minglab kishilarni zindonband qilib chiritgan, osgan, so'ygan zolim jon taslim etdi! Misr podshohi taxtidan, koshonasidan, saltanatidan yiroqda jon berdi. Uning boshida na davolovchi tabib, na mehribon do'st va na yig'lovchi bir ko'z turmadi! Bani Isroil hali ham Fir'avnning o'lganiga shubha qilardi. Ular «Fir'avn o'lmaydi» deyishardi. - Axir u necha kunlab yemasdan, ichmasdan yurar edi-ku?! Faqat dengiz uning jasadini qirg'oqqa chiqarib tashlaganidan keyingina «Fir'avn aniq o'libdi» dedilar. Alloh taolo Fir'avnga xitoban shunday dedi: «Mana bugun o'zingdan keyingi kishilarga oyat-ibrat bo'lishing uchun seni jasadingni qutqarurmiz». Fir'avn jasadi inson farzandlariga oyat-ibrat bo'lishi uchun asrab qo'yildi. Bani Isroilni ta'qib etgan qo'shindan biron kishi ham omon qolmadi.

Shunday muazzam Misr mamlakatidan ularga bir arshin ham qabr nasib qilmadi. «Ular qanchadan-qancha bog'larni, chashmalarni, ekinzorlarni va ulug'-go'zal joylarni qoldirib (o'zlari g'arb bo'lib) ketdilar va (Qanchadan-qancha) o'zlari vaqtichog'lik qilgan ne'matlarni (qoldirib ketdilar)! Mana shunday! Biz u (ne'matlarni boshqa) bir qavmga meros qilib berdik. Bas, ularga osmon ham, yer ham (aza tutib) yig'lamadi, ularga (tavba-tazarru' uchun) muhlat ham berilmadi!».

Abul Hasan Ali Hasan an-Nadaviy

Tarjimon Anvar Ahmad